

O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SO'Z TURKUMLARINING O'RGANILISHI

Ro'ziqulov Shohruh ilhom o'g'li
Guliston davlat universiteti stajyor-o'qituvchisi
shohruhroziqulovv@gmail.com

Annotatsiya. Tilshunos olim, akademik A.Hojiyev "O'zbek tilshunoslida so'zlarni turkumlarga ajratish" muammosi o'z yechimini topgan emas, deganda mutlaqo haqdir. Ushbu muammolarni ilmiy asosda talqin etish o'zbek tilshunoslari oldida turgan eng dolzarb masalalardan biri ekanligini hayotning o'zi ko'rsatib turibdi. Shundan bo'lsa kerak, keyingi yillarda o'zbek tilshunoslida so'zlarni turkumlarga ajratish masalasi bilan bog'liq bir qator tadqiqotlar amalga oshirildi.

Shu ma'noda mazkur maqola ham o'zbek tilshunoslida so'zlarni turkumlarga ajratish, xususan, mustaqil va yordamchi so'z turkumlari borasida fikr yuritadi.

Kalit so'zlar: morfologiya, morfemika, o'zbek tilshunosligi, ot, fe'l, grammatik kategoriyalar, antropo-sentrik tadqiq tamoyillari

XIX asrning ikkinchi yarmida yaratilgan o'zbek tilshunosligiga oid tadqiqotlarda morfologiyaga jiddiy e'tibor berilgani barchaga ayondir.

XX asr davomida o'zbek tilshunosligining boshqa sohalarida bo'lgani kabi morfologiya sohasida ham jiddiy ishlar amalga oshirildi. O'zbek milliy tili qurilishida, uning fonetik sistemasida, grammatik qurilishida baynalminal so'zlarning morfologik sostaviga mos ravishda ba'zi bir grammatik formalar-so'z yasovchi yangi affikslar, so'z birikmlari, gapda so'zlarning yerkin tartibda qo'llanilishi va gap qurilishining ba'zi bir yangi tiplari vujudga keldi.

...Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilining fonetik sistemasi va lug'at sostavida ma'lum darajada o'zgarishlar yuz berdi, asosiy lug'at fondining doirasi kengaydi, grammatik qurilishi takomillashdi, yangi stilistik priyomlar vujudga keldi.

XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda ziyorolar o'rtasida milliy o'z-o'zini anglash hissi kuchaydi. Bu davrda Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy kabi ziyorolarning tilshunoslilik taraqqiyotiga qo'shgan hissasa o'ziga xos. Biroq bu

olimlar o‘zbek tili morfologiyasining tadqiq qilishini o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ymagan edi. Ashurali Zohiriyning tilshunoslikka doir ayrim ishida morfologiyaga oid qimmatli fikrlar bayon etilgan.

XX asrning boshlarida Turkistonda bir qancha nomdagi gazeta va jurnallar nashr qilina boshladi. Matbuotning yo‘lga qo‘yilishi o‘zbek adabiy tilining shakllanilishi va rivojlanishi uchun ham qulay imkoniyat yaratdi. Avvalo, jadidlar xalqimizning ajoyib ma’naviy merosi bo‘lgan til masalasiga alohida e’tibor berdilar. Jadidlar harakatining yetakchisi Abdurauf Fitrat jahon madaniyati hazinasiga al-Beruniy, al-Xorazmiy, al-Farg‘oniy, Jaloliddin Rumiy, Bedil singari buyuk daholarni yetkazib bergenligi, lekin bu daholar o‘z asarlarini ona tillarida yemas, arab va fors tillarida yaratganliklari uchun turkiy til imkoniyatlari ochilmay qolganligi, hazrat Navoiy bu tilning keng imkoniyatlarga ega ekanligini ham badiiy, ham ilmiy asarlari bilan isbotlab bergenligi, lekin ul -hazratdan so‘ng turkiy til yana e’tiborsiz ekanligini, uning tarixda baxtiz bo‘lganligini afsus-nadomat bilan tilga oladi [1].

Abdurauf Fitrat o‘zbek tili morfologiyasini bevosita tadqiq qilishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi o‘zbek tili grammatikasini yaxlit, ya’ni morfologiya, so‘z yasalishi va sintaksisni o‘zaro zich bog‘langan sathlarining fonetik tizimi tarzida tadqiq qildi.

Fitrat o‘zbek tilshunosligining o‘sha davr uchun eng dolzarb bo‘lgan masalasiga jiddiy e’tibor qaratdi, unga o‘z munosabatini bildirdi. Uning “Ishtirokiyun” gazetasida nashr qilingan “Tilimiz” maqolasining o‘zi ham bunga asos bo‘la oladi. Olimning “O‘zbek tili qoidasi to‘g‘risida bir tajriba; Sarf“ asarida o‘zbek tilining fonetik tizimi chuqur tahlil qilingan. Fitratning sof morfologik qarashi uning “Sarf“ morfologiya asarida o‘zi fodasini topgan [2]. Fitratning so‘zga jiddiy e’tibor bergenligi, ayniqsa, so‘zga ham, avvalo, ma’no anglatish nuqtai nazaridan yondashganligi, birinchi o‘ringa mazmunni qo‘yganligi, Ya’ni ma’nodan shaklga qarab borganligi muhim.

Olim, avvalo so‘zga ta’rif beradi: “So‘z bir ma’noni bildirgan, o‘ziga maxsus ohangi va bosimi bo‘lgan tovush to‘dasiga degan fikr bildiriladi.

So‘z ma’nosini asos qilib olgan xolda turkumga ajratadi: ot, sifat, son, fe'l, olmosh, ko‘makchi kabi. Ot turkumiga to‘xtalgan Fitrat, u mavhum, Ya’ni ko‘zga ko‘rinmas otning mavjudligiga e’tibor qaratadi. U otni tub va yasama otga ajratadi. Sistemaga amal qilgan holda yasama otning o‘rin oti, qurol oti, ish oti kabi turlarni farqlaydi. Xullas, otning barcha, eng muhim o‘ziga xos xususiyatlariga atroflicha to‘xtaladi.

Umuman olganda, Fitrat so‘z turkumlari, so‘zlarning grammatik kategoriyalari haqida ham izchil ma’lumotlar beradi. Har bir tilning morfologiyasida so‘z tushunchsi markaziy o‘rinni egallaydi. Fitrat so‘z tushunchasiga onomosiologik nuqtai nazardan, Ya’ni obyektiv olamdan uning umumlashgan obrazining ongda aks etishi orqali bu umumlashgan obrazning muayyan moddiy vosita-tovushlar silsilasi yordamida ifodalanishi nuqtai nazardan yondashadi.

Fitrat so‘zlarni semantik tamoyil asosida, ya’ni qanday ma’noni bildirishiga ko‘ra ot, sifat, fe'l, olmosh va ko‘makchilarga ajratadi. So‘zlarni leksik-grammatik guruhlarga tasniflashda arab tilshunosligi an’analaridan chetlashgan holda Yevropa tilshunosligi an’analariga asoslanib, barcha so‘z turkumlariga alohida-alohida to‘xtalib, uning o‘ziga xos jihatini yoritib beradi.

Jumladan, sifat, olmosh, son, fe'l, ko‘makchining deyarli barcha xususiyatini imkon doirasida, o‘sha davrdagi holatiga ko‘r baholaydi. Ayniqsa, olimning fe'l turkumiga oid qarashi katta ahamiyatga ega. Uning har bir fe'l ish bilan uning ishlovchisi hamda bir zamonni bildiradi, tarzida aytilgan fikri muhim. Olim fe'lning zamon, shaxs-son, shuningdek, bo‘lishli-bo‘lishsizlik, o‘timli-o‘timsizlik, nisbat kabi kategoriyalarga nisbatan o‘z qarashini bayon qiladi. Uning e’tiboridan ko‘makchi fe'l va o‘liqsiz fe'l ham chetda qolmadi. O‘zbek tilshunosligi tarixida morfologiyanı bevosita tadqiq qilish, bu sohada alohida kitob yaratish XX asrning boshiga to‘g‘ri keldi. Buni Abdurauf Fitrat amalga oshirdi.

Umuman, o‘zbek tilshunosligida morfologiyanı emas, balki tilshunoslikning barcha sathini Yevropa tilshunosligiga tayangan holda tadqiq etishni boshlab bergen olimlardan biri ham, asosiysi ham Abdurauf Fitratdir. Fitrat har bir so‘z turkumi to‘g‘risida atroflicha ma’lumotlar beradi. Masalan, “Ot” so‘z turkumi bo‘yicha quyidagi fikrni bayon etadi:” ...bildirgan ma’noga ot bo‘lib taqalg‘on so‘z ot deyiladi. Otlarning hammasi barmoqdagi “ko‘zga ko‘rinarlik narsa”ni ifodalash shart emas: es, qayg‘u, zulm kabi manosi ko‘zga ko‘rinmas otlarning ham

mavjudligi ta'kidlanadi. Bu bilan olim otlarning ma'no jihatdan aniq va mavhum turlarga ajralishiga ishora qiladi.

Fitra o'zbek tilshunosligi tarixida o'zbek tili grammatikasiga asos soldi. Uning "Sarf" va "Nahv" nomli darsliklari 1925 yildan 1930-yilgacha olti marta nashr qilindi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Fitrat morfologiya xususan so'z turkumlari, so'zlarning grammatik kategoriyalari haqida izchil ma'lumotlar beradi. Har bir tilning morfologiyasida so'z tushunchasi markaziy o'rinni egallashini ta'kidlagan holda so'z tushunchasiga onomosologik nuqtai nazardan, Ya'ni obyektiv olamdan uning umumlashgan obrazining ongda aks etishi orqali bu umumlashgan obrazning muayyan moddiy vosita-tovushlar sistemasi yordamida ifodalanishi nuqtai nazardan yondashadi.

XX asrning boshlarida o'zbek tili morfologiyasining shakllanishida Abdurauf Fitratning ilmiy faoliyati asosiy o'rinni egallagani bugungi kunda barchaga ayondir. U o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishga turkiy tillar tizuimidagi o'rnini va istiqbolini ochib berishga harakat qildi. U so'zlarni semantik tomonlar asosdida guruhlarga ajratdi.

Fitratning so'z turkumlari borasidagi ilmiy qarashlarini bugungi kun nuqtai nazaridan sinchiklab o'rganish bizningcha, dolzarb muammolardan biridir. Zero, olimning, ayniqs agrammatik sohadagi asarlari hozirgacha "qimmatini yo'qotgan emas.

...O'zbek tilshunosligi tarixida morfologiyani bevosita tadqiq qilish, bu sohaga oid alohida kitob yaratish XX asrning boshiga to'g'ri keladi. Abdurauf Fitrat bu ishni o'zi amalga oshirgan. O'zbek tili morfologiyasini jiddiy o'rganishni bir oz keyinroq bo'lsa-da, Abdurauf Fitrat boshlab bergen deyish mumkin. O'zbek tilshunosligida morfologiyani emas umuman, barcha sathni Yevropa tilshunosligiga tayangan holda tadqiq etishni boshlab bergen olimlardan biri ham, asoschisi ham Abdurauf Fitrat edi.

Umuman olganda XX asrning 40-yillarida o'zbek tilshunoslik fanining jiddiy rivojlanish pallasiga kirganligini ko'ramiz.

Shu davrga kelib YE.D.Polivanovning “O’zbek tilining qisqacha grammatikasi” (Toshkent, 1925), Qayum Ramazonning “ O’zbek tili ” kitobi morfologiyaga bag‘ishlangan edi. Keyinchalik Faxri Kamolovning . taxriri ostida nashr qilingan fundamental asari “Hozirgi zamon o’zbek tili” (1975) yuzaga keldi. Haqiqatdan ham o’zbek adabiy tili morfologiyasini ilmiy asosda izchil o’rganish, shuningdek, sistema tarzida jiddiy tadqiq etish ham ana shu davrdan boshlandi, deyish mumkin. Chunki bu asarda o’zbek tilidagi so‘z turkumi, uning barcha morfologik xususiyati ham oldingi Sharq tilshunosligidagi talqini ham, keyingi davr Yevropa tilshunosligida “Morfologiya” bo‘yicha aytilgan barcha fikr, qarashni ham hisobga olgan holda talqin qilindi.

“Hozirgi zamon o’zbek tili” 1957 kitobida so‘z dastlab mustaqil so‘z, yordamchi so‘z, modal so‘z, undov va mimemalarga ajratiladi. Mustaqil so‘zga ot, sifat, son, olmosh, fe'l va ravish kiritilgan; yordamchi so‘z sifatida ko‘makchi, bog‘lovchi va yuklama qayd etiladi. Modal so‘z alohida so‘z turkumi tarzida berilgan. U to‘g‘ridan-to‘g‘ri modal so‘z- gap tarzida emas, balki, avvalo, so‘z sifatida qayd etilgan. So‘ngra uning gapdagi vazifasi, yani kirish birlik, gap bo‘lib kelishi kabi boshqa holat sifatida alohida baholangan. Modal va undov so‘zni avval so‘z sifatida qayd etish, keyin uning vazifasini belgilash 50-yillar tilshunosligiga xosdir. Bu davr tilshunosligida undov bilan mimema birlikda bir turkum sifatida talqin qilingan: undov va mimema kabi. Chunki rus tilshunosligida ushbu turkum-mejdometiye deb atalgan.

Hozirgi kunda esa taqlid (mimema) mustaqil so‘z turkumi doirasida qaralmoqda. Zero o’zbek tilshunosligida 60-yillardayoq tasviriy so‘z (harakat-holatga taqlid so‘z) va taqlidiy so‘z (tovushga taqlid so‘z) alohida so‘z turkumi sifatida ajratilgan. Umuman, bu davrga kelib, so‘zni mustaqil so‘z turkumi, yordamchi so‘z turkumi va alohida so‘z turkumi (mustaqil so‘e turkumi doirasiga ham , yordamchi so‘z to‘dasiga ham kirmaydigan alohida bir to‘dani tashkil etuvchi so‘z) tarzida tasniflash amalga oshirildi. Bu talqin XX asr boshida ham o‘z qimmatini yo‘qotgan emas.

XX asrda jiddiy tadqiq etilgan o’zbek tilshunosligining taraqqiyotida rus va Yevropa tilshunosligining ta’siri muhim o‘rin egallagan .

Dastlab, o‘tgan asrning 40-yillarida U.Tursunov «O‘zbek tilida so‘z turkumlarining yasalishi» mavzusida nomzodlik dissertasiyasini yoqladi. U.Tursunov o‘zbek tili morfologiyasining eng dolzarb muammosini tadqiq etishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Bir so‘z bilan aytganda, U.Tursunovning morfologiyaga oid talqini, boshqa asaridagi kabi shu kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas[3].

XX asr o‘rtasida o‘zbek tilshunosligi taraqqiyotida, ayniqsa, uning morfologiyasini o‘rganish bo‘yicha qilingan ishi doirasida S.Usmonov, F.Abdullayev, T.Ibrohimov, A.G‘ulomov, V.V.Reshetov, A.N. Kononov, M.Asqarova, S.Mutallibov kabi olimlarning xizmatlari beqiyosdir.

O‘zbek tilining taraqqiyotida, xususan morfologiya sohasida qilingan ishlar orasida prof. A.G‘ulomovning hissasi alohida o‘rin egallaydi. A.G‘ulomovning til hodisasiga yondashuvida unga sistema sifatida munosabatda bo‘lishining til-lison-nutq munosabatini hisobga olishning, dialektikaga e’tibor qaratishning, shuningdek, tilga formaldir. Olim imkoniyatning nutqda voqealanish qonuniyatini mazmun-shakl, mohiyat-hodisa, imkoniyat-voqelik, sabab-oqibat, umumiylilik- xususiylik kategoriyasini ham hisobga olgan holda lison va nutqni yaxlit holda talqin qildi. Jumladan, tilshunoslikning eng muhim vazifasi hisoblangan masalaga, Ya’ni til birligi imkoniyatini belgilay olish va bu imkoniyatning nutqda namoyon bo‘lishini ochib berish masalasiga juda jiddiy e’tibor qaratilganligi kuzatiladi.

A.G‘ulomovning 50-yillar o‘rtasida yaratgan «O‘zbek tili morfologiyasiga kirish» (1953) monografiyasi tilga sistema tarzda yondashuvning yorqin namunasi. Kitobda so‘z tarkibi, so‘z va uning xususiyati, so‘z yasalishi, qo‘shma so‘z, so‘z turkumi muammosiga nisbatan olim o‘z qarashini bayon qiladi hamda mavjud qarashini boyitadi[4].

Keyinchalik olimning morfologiya sohasidagi qarashlari XX asrning ikkinchi yarmida akademik A.Hojiyev, O.Usmon, X.Komilova, Z.Ma’rupov, S.Fuzailov, SH.Rahmatullayev, S.Dolimov, YO.Tojiyev, M.Jo‘raboyeva, A.Berdaliyev, T.Mirzaqulov, N.Mahkamovlar o‘z ishlarida bu sohadagi ishlarni izchil davom ettirdi.

Xullas, XX asrning 70-90-yillarida o‘zbek tilshunosligida morfologiya sathini o‘rganish bo‘yicha ancha jiddiy tadqiqot ishlari olib borilganligi diqqatga sazovordir.

Tilshunoslikda bu qadar xilma-xil qarashlarning ildizi ilmiy dunyoqarash – metodologiyaga borib taqaladi. Har bir tilshunos tasnifini o‘z dunyoqarashi – metodologiyasiga asosan tuzadi. Ammo uning dunyoqarashi mantiqiy tamoyillarga doim ham mos kelavermasligi va natijada tasnif muayyan kamchiliklar bilan yuzaga kelishi mumkin. Mantiqda tasnifning odatda to‘rtta tamoyili ko‘rsatiladi:

Birinchidan, tasnif faqat yagona asosda olib borilishi lozim. Bundan kelib chiqadiki, avval-boshda tanlab olingan asosni tasnif jarayonida o‘zgartirish va almashtirish mumkin emas.

Ikkinchidan, tasnif to‘la-to‘kis bo‘lishi lozim, Ya’ni tasnif a’zolarining yig‘indisi tasniflanuvchi hajmiga teng kelishi kerak. Uchinchidan, tasnif a’zolari bir-birlarini istisno qilishlari lozim.

To‘rtinchidan, tasnif uzlusiz bo‘lishi talab qilinadi, Ya’ni turdan jinsga va hokazo sakrashlarga yo‘l qo‘yilmaydi.

Tilshunoslik tarixida mayjud bo‘lgan tasniflarda formal mantiqning ushbu tamoyillaridan ayrimlarining buzilishi uchraydi. Eng ko‘p buziluvchi tamoyillardan biri tasnifning bir asosligidir. Xususan, o‘zbek tilshunosligida ham so‘zлarni turkumlarga ajratishda uchta asos ko‘rsatish an’anasi mayjud: morfologik prinsip, leksik-semantik prinsip va sintaktik prinsip. Albatta, bu prinsiplar birdaniga emas ketma-ket tatbiq etiladi. Biroq bu holat tasnif uzlusizligi tamoyiliga mos kelmaydi. Ya’ni izomorflik buziladi. Tasnifning bir bosqichida faqat bitta asos qo‘yilishi lozim va keyingi bosqichda boshqa xil asos qo‘llanishi mumkin. Ammo shuni alohida qayd etib o‘tish lozimki, keyingi davr turkiyshunosligi va o‘zbek tilshunosligida so‘z turkumlari tasnifini ana shu asoslarga qo‘yishga intilishlar paydo bo‘ldi. Birinchi tamoyilning buzilishi eng keng tarqalgan bo‘libgina qolmay, eng qadimiy ham. Eramizdan avvalgi IV asrdayoq Arastu «so‘zning bayon qismlari» haqida gapirar ekan, ism, fe’l, bog‘lovchi va alohida tovushlar, bo‘g‘in va kelishikni bir qatorda sanayveradi.

Mustaqillik barcha fan sohasi bo'yicha jiddiy ilmiy-tadqiqot olib borishga keng yo'1 ochdi. O'zbek tilshunosligini Yevropa, ayniqsa, rus tilshunosligi andozasi ta'siridan chiqardi. Endi o'zbek tilshunosligi mustaqil tarzda, asosan, o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqqan holda til hodisasini baholash yo'lini tanladi. Tabiiyki istiqlol sharofati bilan tadqiqot ko'lami kengayib bormoqda.

Mustaqillikkacha bo'lgan davrda o'zbek tilshunosligi ko'p hollarda tavsifyi xarakterda ish ko'rgan bo'lsa, istiqlol yillarda umumtilshunoslikning muhim nazariy muammalari, universal lingvistik ta'limotlar o'zbek tili materiallari asosida o'rganila boshlandi, bir so'z bilan aytganda, hukmron tilshunoslik nazariyalarining to'g'ridan –to'g'ri tatbiqidan voz kechildi. Til sistemasi va uning shakllanish jarayonida yuz beradigan lisoniy hodisalarning mohiyatini belgilash bilan bog'liq nazariy masalalarni to'la va to'g'ri hal qilmasdan yangi davr talablariga javob beradigan o'quv qo'llanmalari va darsliklarni yaratish mumkin ekanligini tushungan ilg'or tilshunoslari til birliklari va ular bilan bog'liq leksik-sintaktik hodisalarning nazariy jihatlarini asoslashga asosiy e'tiborlarini qaratdilar. Natijada tilshunoslikning nazariy tomonlarini o'rganishga bag'ishlangan bir qator tadqiqotlar yuzaga keldi.

Mofologiya sohasida N.Mahmudov, A.Nurmonov va boshqalar tomonidan «Nazariy grammatika», R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, T.Boqiyeva va boshqalar tomonidan substansial yo'naliш asosida «Hozirgi o'zbek adabiy tili. Morfemika. So'z yasalishi. Morfologiya» qo'llanmasi va boshqa darslik va qo'llanmalarning nashr etilganligi diqqatga sazovordir[5,6].

Bu davr tilshunosligining yana bir o'ziga xos jihat shundaki, tilni o'rganishning an'anaviy- tarixiy, sistem -struktur va antropo-sentrik tadqiq tamoyillari yonmay-yon ish olib bordi, bir qator tadqiqotlar yuzaga keldi.

Ana shunday ishlardan biri yetuk tilshunos A.Hojiyevning "O'zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so'z yasalishining nazariy masalalari" nomli kitobidir[7].

Shu bilan birga, mustaqillik yillarda o'nlab nomzodlik va doktorlik dissertasiyalarining himoya qilinganligi, o'nlab monografiya va yuzlab ilmiy

maqolalarning chop etilganligi o‘zbek morfologiyasi borasidagi tadqiqotlarning salmog‘i juda yuqori ekanligini tasdiqlaylaydi. Jumladan, tilshunos Z.Isoqovning nomzodlik, A.Pardayevning monografiyasi, J. Eltazarovning monografiyasi, F.Sharipovning doktorlik dissertasiyalari[8] morfologiya, xususan, so‘z turkumlari borasidagi muammolarni tadqiq etishga bag‘ishlanganligi quvonarli holdir.

So‘z turkumlari tadqiqi haqida gap ketar ekan, tilshunos F..Sharipov shunday deydi: “O‘zbek ilmiy tilshunosligiga asos solgan jadidlarimizda Abdurauf Fitrat tomonidan qoldirgan me’rosi, keyingi yillarda samarali ijod qilgan tilshunoslarimiz S.Mutallibov, G‘ozi Olim Yunusov, M.Shamsiyev, A.Sherbek, H.Qayumiylar, S.Dolimov, O.Usmon, B.Azizov hamda YE.D.Polivanovlarning so‘z turkumlari bo‘yicha olib borgan ilmiy tadqiqotlari bugungi zamonaviy tilshunoslikning asosi bo‘lib xizmat qilaётganligiga shohid bo‘lamiz. Biroq kelajak avlodga o‘zbek zamonaviy tilshunosligini o‘zgacha tarzda talqin qilish masalasiga oydinlik kiritish hamda sistem-struktur tilshunoslikni mukammal o‘rganish maqsadida U.Tursunov J.Muxtorov, SH.Rahmatullayev, SH.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A.Xojiyev, I.Rasulov, X.Doniёrov, A.Sodiqov, A.Abduaazizov, M.Irisqulov, X.Abduraxmonov, A.Rafiyev, D.Shodmonqulov hamda YO.Tojiyev kabi olimlarning ilmiy asarlarini o‘rganmay turib bu bosqichga qadam qo‘yish to‘g‘ri emas deb o‘ylaymiz [8].

O‘zbek tilshunosligida morfologiya sohasi o‘zining munosib taraqqiyot tarixiga egadir. Ayniqsa, o‘zbek formal (an'anaviy) morfologiyasining davomi sifatida shakllangan substansial (formal-funksional) morfologiya o‘zbek tilining grammatik qurilishini o‘rganish borasida tadqiq metodologiyasi, metodikasi, tomojillari va o‘rganish predmetining o‘ziga xosligi bilan to‘la ma’noda yangi yo‘nalish sifatida shakllanib ulgurdi.

Olimlarimiz B.To‘ychiboyev, M.Qurbanovalar tomonidan Fitratning tilshunos sifatidagi faoliyati, grammatikaga, jumladan, morfologiyaga oid qarashlari jiddiy tadqiq etilgan. Shu bilan birga A.Nurmonov va N.Mahmudovlarning «O‘zbek tilshunosligi tarixi» darsligida Fitratning morfologik qarashlariga alohida e’tibor qaratilgan.

Xulosa. Tilshunoslik tarixida hech bir munozara so‘zlarni turkumlarga ajratish borasidagi kabi uzoq davom etmagan va shu qadar ko‘pchilikni jalg etmagan bo‘lsa kerak. Antik davrlardan boshlangan bahs davom etmoqda va, aftidan, hammaga maqbul yechimgacha hali uzoq. Bunday yechimning zaruriyligi aniq.

Tilshunoslikda bu qadar xilma-xil qarashlarning ildizi ilmiy dunyoqarash – metodologiyaga borib taqaladi. Har bir tilshunos tasnifini o‘z dunyoqarashi – metodologiyasiga asosan tuzadi. Ammo uning dunyoqarashi mantiqiy tamoyillarga doim ham mos kelavermasligi va natijada tasnif muayyan kamchiliklar bilan yuzaga kelishi mumkin.

Hozirga qadar so‘z turkumlarining soni haqida olimlar o‘rtasida hamon turli fikrlar mavjud. Masalan, taraqqiy etgan rus tilshunosligida ham so‘z turkumlari soni o‘nta, o‘n ikkita, hatto o‘n beshta, degan yondashuvlar hukm surib kelmoqda.

Ko‘rinadiki, so‘zlarni turkumlashga ajratishda semantik jihat asos qilib olinganda (mantiqan yagona mezonning tasnifga tatbiq etilishi juda qonuniy bo‘lsa-da), muammolarning mavjud bo‘lmasligi uchun faqat shu yetarli emasligi sezilib qoldi. Shunga ko‘ra, boshqa xil mezonlar tasnifning to‘la-to‘kis bo‘lishiga imkon yaratadi, degan xulosaga kelish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Фитрат. Тилимиз // Иштирокионъ. – Тошкент: 1919. – № 132.
2. Фитрат. Сарф. – Самарқанд-Тошкент: Ўздавнашр, 1930.
3. Турсунов У. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили: Олий ўкув юрт. филология фак. талабалари учун дарслик.– Тошкент: Ўзбекистон, 1992
4. Гуломов А. Феъл. – Тошкент: Фан, 1954. – Б. 67–82
5. Н.Махмудов, А.Нурмонов . Ўзбек тилининг назарий грамматикаси”. Тошкент, 1995; Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш.,Искандарова Ш., Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси”. Морфология. Тошкент, 2001
6. Сайфуллаева Р.Р., Менглиев Б.Р., Боқиева Г.Х., Қурбонова М.М., Юнусова З.Қ., Абузалова М.Қ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2006, 167-168- б
7. Ҳожиев А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. Т.,2010.

8. Шарипов Ф. Ўзбек замонавий морфологиясида сўз туркумлари таснифининг такомиллашуви. ДД. Г., 2022.
9. Ro‘ziqulov S., Muratkulov A., Eshboyeva F. TA’LIMDA RASMIY ISH QOG ‘OZLARINING AHAMIYATI // Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления. – 2024. – Т. 1. – №. 3. – С. 22-25.
10. Axrorov A., Ermatov I., Ro‘ziqulov S. TIL VA FAOLIYAT VA ULARNING O ‘ZARO BOG ‘LIQLIGI // Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления. – 2024. – Т. 1. – №. 3. – С. 4-7.
11. Рўзиқулов Ш. ЖИНСНИНГ МОРФОЛОГИК УСУЛДА ИФОДАЛАНИШИ // Новости образования: исследование в XXI веке. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 148-151.
12. Muratkulov, A., Eshboyeva, F., & Ro‘ziqulov, S. (2024). O ‘ZBEK TILIDA ARABCHA KO ‘PLIK SHAKLLARINING QO ‘LLANILISHI. Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления, 1(3), 66-69.